



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI EKOLOGIYA, ATROF-MUHITNI
MUHOFAZA QILISH VA IQLIM O‘ZGARISHI VAZIRLIGI
DAVLAT EKOLOGIK EKSPERTIZASI MARKAZI
TOSHKENT SHAHAR FILIALI**

Manzil: 100043, Toshkent shahri, Chilonzor tumani Bunyodkor ko‘chasi, 7-uy,
Tel: 71-277-83-01

**DAVLAT EKOLOGIK EKSPERTIZASI
XULOSASI**

TARTIB RAQAM 01-02/14-184

HUJJAT TURI Chiqindilarning paydo bo‘lishi va joylashtirilishining ekologik normativlari loyihasi

Davlat ekologik ekspertizasi buyurtmachisi ARCA GROUP MCHJga berildi.
STIR: 306812314

Davlat ekologik ekspertizasi obyekti: Toshkent shahri M.Ulugbek tumanida joylashgan.

Loyihalarini ishlab chiquvchi nomi: "ECO NEST UNO" MAS’ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT
STIR:309338537

Davlat ekologik ekspertizasi mas’ul eksperti: ABDUSALOMOV XONDAMIR VOXID-O‘G‘LI

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 7-sentabrdagi 541-son qarori bilan tasdiqlangan 1-ilovaga muvofiq, ushbu davlat ekologik ekspertizasi obyekti **atrof-muhitga ta’sir ko‘rsatishning III toifa toifasining 47–bandiga mansub.**

O‘tkazilgan davlat ekologik ekspertizasi natijasi: **Ijobiy xulosa**
Davlat ekologik ekspertizasi xulosasi:

Berilgan sana: 01.03.2024

Amal qilish muddati: 01.03.2029

*Ekologik ekspertiza obyektining ekologik talablarga muvofiqligi, joylashuv nuqtalari koordinatalari, atrof-muhitni muhofaza qilish chora-tadbirlari, bajarilishi shart bo‘lgan talablar va boshqalar to‘g‘risida ilovada keltirilgan O‘zbekiston Respublikasi ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligining Davlat ekologik ekspertiza markazi va filiallarining ekspert xulosasi ushbu davlat ekologik ekspertizasi xulosasining **ajralmas qismi hamda unda belgilangan talablar bajarilishi shart hisoblanadi.***

Izoh: Buyurtmachi tomonidan davlat ekologik ekspertizasi xulosasida nazarda tutilgan ekologik talablarga rioya etilmaganda, davlat ekologik ekspertizasi xulosasi qonunchilikda belgilangan tartibda bekor qilinadi.



Direktor
Sh.Muminov

Davlat ekologik
ekspertizasi xulosasiga
ilova

Davlat ekologik ekspertizasi natijalari bo'yicha Ekspert xulosasi

Obyekt bo'yicha:	Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani, Sayram 7-tor ko'chasi 50-uyda ijarada joylashgan "ARCA GROUP" mas'uliyati cheklangan jamiyati korxonasi tomonidan kassa apparatlarini yig'ish faoliyatida "Chiqindilar hosil bo'lishi va ularni joylashtirish ekologik normativlari" loyihasi
Buyurtmachi:	ARCA GROUP MCHJ
STIR	306812314
Toifa:	III toifa
Loyihachi tashkilot:	"ECO NEST UNO" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT
Ekspert:	ABDUSALOMOV XONDAMIR VOXID-O'G'LI

"Davlat ekologik ekspertizasi markazi" davlat muassasasi Toshkent shahar filialiga, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani, Sayram 7-tor ko'chasi 50-uyda fuqaro Umarova Dilrabo Tursunpulatovna hududida ijarada joylashgan "ARCA GROUP" mas'uliyati cheklangan jamiyati korxonasi tomonidan kassa apparatlarini yig'ish faoliyatida "Chiqindilar hosil bo'lishi va ularni joylashtirish ekologik normativlari" loyihasi taqdim etilgan.

Ushbu loyiha hujjatni ishlab chiqishdan maqsad – obyekt faoliyatida ishlab chiqarish va iste'mol chiqindilarining hosil bo'lishi va ularni joylashtirishi, miqdori va ularning me'yoriy ko'rsatkichlarini belgilashdan iboratdir.

Mazkur loyiha hujjati O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014 yil 21-yanvardagi 14-sonli "Ekologik normativlar loyihalarini ishlab chiqish va kelishish tartibi to'g'risida"gi Nizom talablari asosida ishlab chiqilgan.

Taqdim etilgan hujjatlarni ko'rib chiqqan "Davlat ekologik ekspertizasi markazi" davlat muassasasi Toshkent shahar filiali quyidagilarni ta'kidlaydi.

Ilgari “ARCA GROUP” MCHJ korxonasi tomonidan kassa apparatlarini yig’ish faoliyatini tashkil etish uchun “Atrof-muhitga ta’siri to’g’risidagi bayonot” (AMTTB) loyihasiga 2020 yil 13 noyabr sanasida 04-1179 sonli Davlat ekologik ekspertizasi ijobiy xulosasi va “Ekologik oqibatlar to’g’risidagi bayonot” (EOTB) loyihasiga 2021 yil 26 fevral sanasida 04-315 sonli Davlat ekologik ekspertizasi ijobiy xulosalari olingan. “Ekologik oqibatlar to’g’risidagi bayonot” (EOTB) loyihasining muddati o’tganligi sababli “Chiqindilar hosil bo’lishi va ularni joylashtirish ekologik normativlari” loyihasi ishlab chiqilmoqda.

“ARCA GROUP” MCHJ korxonasi tomonidan taqdim qilingan “Ishlab chiqarish va iste’mol chiqindilarining hosil bo’lishi hamda ularni joylashtirish ekologik me’yoriy loyihasi”ni ishlab chiqishdan maqsad, korxonaning faoliyati davomida atrof muhitga ta’sirini baholash, ishlab chiqarish va iste’mol chiqindilarining hosil bo’lishi hamda ularni vaqtincha joylashtirish bo’yicha ekologik normativ me’yorlarini belgilashdan iborat.

“ARCA GROUP” MChJning ishlab chiqarish maydonchasi ijara shartnomasi asosida fuqaro Umarova Dilrabo Tursunpulatovnaga tegishli bo’lgan mavjud noturar-joy binosida tashkil etilgan. Ijaraga olingan hududning umumiy maydoni – 326,0 m² bo’lib, ushbu hududda, ishlab chiqarish maydonchasi – 300,0 m², hamda ofis xonasi – 26,0 m²ni egallagan.

Loyihada obyektning joylashishining geografik koordinatalari quyidagicha:

- 41°19'59.86" shimoliy kenglik va 69°19'4.33" sharqiy uzunlikda joylashgan.

Obyektning umumiy ijara maydoni 326,0 m²ni tashkil etib, atrofi shimol tomondan – “UZSAVDOUSKUNALARI” MCHJ hududi, sharq tomondan – “Gofroplast” korxonasi hududi, g’arb va janub tomonlardan – ishlab chiqarish sanoat korxonalari bilan chegaralangan.

Eng yaqin turar-joy binolari obyekt chegarasidan 175,0 metr masofada sharq tomonda joylashgan.

Umumiy ishchilar soni – 20 kishini tashkil etib, ulardan muxandis texnik xodimlar – 2 kishi, ishchi xodimlar 18 kishini tashkil qiladi. Ish tartibi kuniga 8 soat, yiliga 312 kun faoliyat yuritiladi.

“ARCA GROUP” MChJning asosiy ish faoliyati kassa apparatlarini yig’ishga qaratilgan bo’lib, obyektning loyihaviy nominal quvvati o’rta hisobda yiliga - 60 000 dona/yil tayyor mahsulotni tashkil etadi. Mo’ljallangan ishlab chiqarish hajmini amalga oshirish uchun zarur bo’lgan asosiy xom-ashyo materiallarining yillik sarfi: displey - 65 000 dona/yil; materinskaya plata - 65 000 dona/yilni tashkil kiladi. Kassa apparatlarini yig’ish uchun qo’llaniladigan qismlar Xitoy davlatidan sotib olinadi.

Korxona o’z faoliyatini amalga oshirishi uchun quyidagi bo’linmalardan iborat: ishlab chiqarish maydonchasi; omborxona; ofis; sanitar-maishiy xonalar tashkil etilgan.

Kassa apparatlarini yig’ish texnologik jarayoni tarkibiy qism detallarini bir-biriga payvandlash uskunasi (3 dona) yordamida payvandlash orqali amalga oshiriladi.

Ishlab chiqarish (yig’ish) ehtiyojlari uchun quyidagi uskunalar o’rnatiladi:

- payvandlash uskunalari (паяльник) – 3 dona;
- quritgich (фен) – 3 dona;
- asboblari to’plami – 2 dona;
- kompyuter – 3 dona;

- printer – 1 dona o'tnatilgan.

Ishlab chiqarish binosi shahar muxandislik-texnik ta'minoti tarmoqlariga (ichimlik suvi ta'minoti, kanalizatsiya, elektr energiya) ulangan. Kuz-qish mavsumida obyekt binolarini isitish ko'zda tutilmagan. Korxonani issiq suv bilan ta'minlash "Ariston" rusumli elektr suv isitish moslamasi yordamida amalga oshiriladi.

Loyiha bo'yicha obyekt faoliyatida yil davomida 0,9044 tonna 5 turdagi iste'mol chiqindilari hosil bo'lib, ularni yoqilg'i tarqatish hajmiga nisbatan hosil bo'lish me'yorlari va yillik miqdorlari quyidagicha:

T.r.	Chiqindilar nomi	Xavflili toifasi	hosil bo'lish me'yori	miqdori (tn/yil)
1	Polimer chiqindilari	IV	0,0087 tn/xom ashyo	0,832
2	Ishchilarning eskirgan maxsus kiyimlari	IV	0,0022 tn/ishchi	0,0396
3	Yaroqsiz LED chiroqlari	V	0,00000015 tn/soat	0,001
4	Yaroqsiz mato-lattalar	IV	0,0004 tn/mato	0,015
5	Qog'oz (makulatura) chiqindilari	V	0,00028tn/qog'oz	0,0168

Bulardan tashqari (xavflilik darjasi IV va V-sinflar bo'yicha) yiliga 2,956 tonna qattiq maishiy chiqindilar hosil bo'lishi aniqlandi. **Maishiy chiqindilar bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish uchun "Mirzo Ulug'bek-Maxsustrans" ATF bilan qattiq maishiy chiqindilarni to'plash va olib chiqib ketish xizmatlari bo'yicha shartnoma tuzilishi shart.** Oziq-ovqat qoldiqlari (xavflilik darjasi V-sinf) – 0,4 tn/yiliga hosil bo'lini aniqlandi. **Oziq ovqat qoldiqlarini ochiq maydonlarga to'kish, pashsha, chivin va x.k. xashoratlarni ko'payshini oldini olish hamda atrof muhitni sanitariya xolatlarini yaxshilash va ifloslanishni oldinish olish maqsadida oziq ovqat qoldiqlarini maxsus idishlarga to'plab, kunlik manfaatdor qora mol boquvchi fermer xo'jaliklarga ozuqa sifatida topshirish lozim.**

Loyihada korxona ish faoliyati davrida iste'mol chiqindilarining chiqarish hajmiga nisbatan hosil bo'lish me'yorlari va yillik miqdorlari aniqlangan. Korxonada hosil bo'ladigan chiqindilarni vaqtincha saqlaydigan maxsus joylar mavjudligi, ularni o'z vaqtida tegishli korxonalarga topshirish va chiqindixonaga joylashtirish jarayonlari yoritilgan. Shuningdek, loyiha hujjatlarida barcha chiqindilarning hosil bo'lish manbalari yoritilib, ularning yillik miqdori me'yorlari hisob-kitobi keltirilgan. Har bir chiqindi uchun paydo bo'lish jarayoni, xossasi, xususiyatlari va tarkibi kabi ma'lumotlar aks ettirilgan pasport tuzilib, ularning xavflilik sinfi, vaqtinchalik joylashtirish limitlari va utilizatsiya qilish yo'llari belgilangan. Chiqindilarni to'plash, vaqtincha saqlash va transportirovka (tashish) qilish shartlari va qoidalariga amal qilinganda korxonada paydo bo'ladigan barcha chiqindilarning atrof-muhitga zararli ta'sir ko'rsatmasligi aniqlandi. Chiqindilar uchun me'yorlashtirilgan hududning maydoni korxona umumiy maydonining

0,31 m²ni, me'yoriy chiqindilarni saqlash miqdori esa yiliga 0,9044 tonna teng tashkil etadi.

Korxonada hosil bo'lgan chiqindilarni joylashtirish limiti miqdori 0,9044 tn/yilni tashkil etib, barchasi xavflilik darajasi IV va V-sinflarga mansub hisoblanadi. Korxonada xavflilik sinfi bo'yicha I-II va III sinfga taaluqli bo'lgan chiqindilarning hosil bo'lishi kuzatilmaydi.

Loyiha bo'yicha obyektida hosil bo'ladigan chiqindilarni vaqtincha saqlaydigan maxsus joylar mavjudligi, ularni o'z vaqtida tegishli korxonalarga topshirish va chiqindixonaga joylashtirish jarayonlari yoritib berilgan.

Chiqindilarning har bir turi uchun pasportlar, chiqindilarni ishlab chiqarishning o'ziga xos ko'rsatkichlari va standartlari ishlab chiqildi, chiqindilarni harakat qilish belgilari va saqlash joylari ko'rib chiqildi va vaqtincha saqlash uchun chiqindilarni joylashtirish chegaralari hisoblab chiqildi.

Chiqindilarning barcha turlari, agar ularni yig'ish va tashish shartlari bajarilsa, atrof-muhitga zararli ta'sir ko'rsatmaydi. Chiqindilar uchun xavfli sinf (zaharlilik), standartlar va hosil bo'lishning o'ziga xos ko'rsatkichlari aniqlanadi, chiqindi hosil bo'lishi bilan birga ishlab chiqarish faoliyati turini aks yettiruvchi pasportlar tuziladi va ularning xossalari va tarkibi haqida umumiy ma'lumotlar beriladi. Korxonada vaqtincha yig'iladigan chiqindilar uchun joylashtirish joylari va maydonlari belgilanadi.

Mazkur loyiha hujjati O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014 yil 21-yanvarida qabul qilgan "Ekologik normativ loyihalarni ishlab chiqish va kelishish tartibi to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida"gi 14-sonli qarori va boshqa harakatdagi rahbariy hamda uslubiy qo'llanma talablari asosida bajarilgan.

Ekologik ekspertizasining tahliliy natijalariga ko'ra, taqdim qilingan "Chiqindilarni hosil bo'lish me'yori va joylashtirish limiti" loyiha hujjatlari amaldagi O'zbekiston Respublikasi "Ekologik ekspertizasi to'g'risida"gi qonuni, Nizom hamda qonun osti ekologik me'yoriy hujjatlar talablariga muvofiq ishlab chiqilganligi aniqlandi. Davlat ekologik ekspertizasi, "ARCA GROUP" MCHJ korxonasi tomonidan, ochiq suv havzalariga oqova suvlarni tashlanmasligi, hududdagi mavjud ekologik holatning yomonlashuviga olib kelmasligini inobatga olib, ushbu hududda joylashgan kassa apparatlarini yig'ish faoliyatiga ekologik nuqtai nazardan e'tiroz bildirmaydi.

Yuqorida bayon qilinganlarga, hamda Toshkent shahar ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi boshqarmasining 2024 yil 26 fevral sanasida obyektning ishlab chiqarish va iste'mol chiqindilari yo'qlamasi natijalarini tasdiqlangan bo'lib, "Davlat ekologik ekspertizasi markazi" davlat muassasasi Toshkent shahar filiali, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani, Sayram 7-tor ko'chasi 50-uyda fuqaro Umarova Dilrabo Tursunpulatovna hududida ijarada joylashgan "ARCA GROUP" mas'uliyati cheklangan jamiyati korxonasi tomonidan kassa apparatlarini yig'ish faoliyatida "Chiqindilar hosil bo'lishi va ularni joylashtirish ekologik normativlar" loyihasi keltirilgan miqdorda ma'qullaydi.

"ARCA GROUP" MCHJ korxonasi rahbariyati quyidagilarni ta'minlash yuklatiladi:

- O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash Vazirligi Sanitariya Epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmatining Sanitar qoidolari va me'yorlari talablari yani yaqin atrofda istiqomat qiluvchi fuqarolarga ishlab chiqarish binosining sanitariya texnik holati, faoliyat turi bo'yicha sanitariya

normalari, qoydalari va gigiyena normativlariga rioya etilishi hamda sho'vqin va tebranish tekshiruvlaridan o'tkazish kerak;

- chiqindilarning xavfsiz shart-sharoitda to'planishi, saqlash maydonida ekologik normadan oshiq joylashtirilmasligi, o'z vaqtida utilizatsiya qilinishini doimiy nazoratda tutish;

- hosil bo'lgan toksik va notoksik chiqindilar hisobini yuritib, o'rnatilgan tartibda davlat statistika hisobotlarini statistika organlariga topshirilishini ta'minlash;

- zaharli (toksik) va zaharli bo'lmagan chiqindilar hisobini yuritish va belgilagan tartibda davlat statistika hisobotlarini taqdim etish (1-E shakli);

- chiqindilarni xavflilik darajasi va turiga qarab ajratgan holda to'plash va vaqtincha saqlashga mo'ljallangan maxsus punkt (MSP) tashkil etish; qattiq qoplamali maydonchalarda zarur miqdordagi qopqoqli konteynerlar o'rnatish;

- chiqindilar bilan ishlash faoliyati 2018 yil 2-oktyabr O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 787-sonli Maishiy chiqindilar bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish sohasidagi ishlar samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi qarori bilan tasdiqlangan "Sanitariya jihatidan tozalash infratuzilmasi obyektlarini joylashtirish va ulardan foydalanish hamda maishiy chiqindilar bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish qoidalari"ga amal qilgan holda tashkillashtirish (hududning qattiq maishiy chiqindilar bilan ifloslanishning oldini olish maqsadida qattiq maishiy chiqindilarni to'plash va vaqtincha saqlash uchun mo'ljallangan maxsus chiqindi qutilarini o'rnatish, tashkilot binosiga kirish (chiqish) yo'lida qattiq maishiy chiqindilarni to'plash uchun 1-2 ta chiqindi qutilarini bir biridan 10 metrdan uzoq bo'lmagan masofada joylashtirish, egallab turgan yer uchastkasida qattiq maishiy chiqindilarni to'plash uchun g'ildirakli va zich yopiladigan qopqoqli hamda maxsus avtotransport vositasining manipulyatori bilan ishlashi uchun moslamaga ega bo'lgan konteynerlarni o'rnatgan holda, qattiq maishiy chiqindilarni vaqtinchalik to'plash va saqlash joylarini tashkillashtirish, maishiy chiqindilarni to'plash va olib chiqib ketish bo'yicha xizmatlar ko'rsatish yuzasidan ixtisoslashgan sanitar kompaniya bilan shartnoma tuzish lozim;

- binoni va hududni yoritish uchun tarkibida simob moddasi bo'lgan energiya tejovchi yoritgichlar ishlatilishi ko'zda tutilsa, foydalanishdan chiqqan yaroqsizlarini belgilangan joyda maxsus qutida saqanishi ta'minlansin va ularni zararsizlantirish (демеркуризация) uchun maxsus ixtisoslashgan korxonalarga topshirilsin;

- sanitar tozalash bo'yicha ixtisoslashtirilgan korxona bilan tuzilgan shartnomaga binoan maishiy chiqindilarning o'z vaqtida olib ketilishini ta'minlash;

- chiqindilar miqdorini kamaytirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalda tadbir etish;

- sanoat va yordamchi uskunalari, apparatura, kommunikatsiya va ventilyatsiya moslamalarini soz holda tutish, muntazam ravishda texnik xizmat ko'rigidan o'tkazish ishlarini doimiy ravishda amalga oshirishi lozim;

- atrof-muhitni ifloslantirganlik uchun kompensatsiya to'lovlarining hisob-kitoblari to'lovini qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshirish lozim.

- korxona ishchi xodimlarining yong'in va texnika xavfsizligiga o'z vaqtida rioya etilishiga;

- korxona tomonidan, atrof muhitga yetkazilayotgan zararli ta'sir oqibatlarini kamaytirish maqsadida, korxona hududi va atrofida ko'kalamzorlashtirish ishlarini doimiy ravishda olib borish talab etiladi;

- obyektning amaldagi sanitar qoidalar va meyorlarga muvofiq shovqin manbalarining shovqin va tebranishni kamaytirishga doir, shuningdek yong'in va texnika xavfsizligiga rioya etilishiga doir chora-tadbirlarni amalga oshirish, mavjud binolardan sanitariya va yong'indan saqlash normalari asosida oraliqni saqlash bo'yicha amaliy chora-tadbirlarni ishlab chiqish;

- obyekt hududining sanitariya holatini muntazam nazorat qilish, birlashtirilgan hududni obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish choralarini amalga oshirish (mavsumiy ko'rkamlik beruvchi ko'chat va gullar o'tkazish, parvarishlash bo'yicha agrotexnik tadbirlarni bajarish, bahor-yoz mavsumida ko'cha-yo'llar tarmog'ining qatnov qismini, yo'lkalari va maydonlarni supurish va yuvish (suv sepish), o'simlik dunyosiga zarar yetkazmaslik, daraxtlarning noqonuniy kesilishiga yo'l qo'ymaslik talab etiladi.

Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha normativ-huquqiy hujjatlar talablariga rioya etilmaganligi uchun korxona rahbari qonun hujjatlariga muvofiq javobgar bo'lishini eslatib o'tamiz.

Shu bilan birga buyurtmachi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 12-apreldagi 202-sonli "O'zbekiston Respublikasi hududida atrof tabiiy muhitni muhofaza qilishning iqtisodiy mexanizmlarini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi qaroriga binoan ob'ekt hududida atrof tabiiy muhit ifloslantirilganligi uchun to'liq kompensatsiya to'lovlari amalga oshirish lozim.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014 yil 21 yanvardagi 14-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Ekologik normativ loyihalarini ishlab chiqish va tasdiqlash tartibi to'g'risidagi" Nizomiga ko'ra (51-band), chiqindilarning hosil bo'lishi va joylashtirilishi me'yoriy loyihasining bir nusxasini, Toshkent shahar ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi boshqarmasining inspeksiyasiga taqdim etilishi lozim.

Mazkur xulosaning amal qilish muddati yuqorida qayd etib o'tilgan qarorning 9-bo'lim, 53 bandiga muvofiq ekologik normativlar faoliyat ko'rsatayotgan ob'ektlar uchun **besh yil** muddatga berilishi belgilab qo'yilgan.

Toshkent shahar ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi boshqarmasi sohasidagi nazorat bo'yicha Mirzo Ulug'bek tuman inspeksiyasiga, Mirzo Ulug'bek tumani, Sayram 7-tor ko'chasi 50-uyda fuqaro Umarova Dilrabo Tursunpulatovna hududida ijarada joylashgan "ARCA GROUP" MCHJ korxonasi uchun ishlab chiqilib tasdiqlangan ekologik me'yorlarga amal qilinishini nazoratga olish, korxona hududidagi atrof-muhit holati bo'yicha har chorakda monitoring olib borish va korxona tomonidan atrof-muhitga yetkazilayotgan zararli ta'sir ko'rsatilganligi uchun yilda bir marta kompensatsiya to'lovlari amalga oshirilishi ustidan doimiy nazorat o'rnatilishi talab etiladi. Asosiy e'tiborni korxona hududida hosil bo'ladigan chiqindilarni o'z vaqtida utilizatsiya qilish chora-tadbirlariga qaratish lozim bo'ladi.

Xulosada ko'rsatilgan shartlar bajarilmaganda hamda loyihada ko'rsatilgan texnologik jarayon va uskunalarda o'zgarish bo'lsa, shuningdek, ob'ekt faoliyatidan boshqa qo'shimcha faoliyat turlari amalga oshirilgan taqdirda ushbu ekologik ekspertiza xulosasi o'z kuchini yo'qotadi va O'zbekiston Respublikasi

Vazirlar Mahkamasining “Atrof-muhitga ta’sirini baholash mexanizmini yanada takomillashtirish to’g’risida”gi 2020 yil 7-sentabrdagi 541-sonli Qarori bilan tasdiqlangan Nizom talablari asosida uning “Atrof-muhitga ta’sir ko’rsatilishi to’g’risidagi bayonot” loyihasini ishlab chiqib, davlat ekologik ekspertizasidan o’tkazishi shart.

Toshkent shahar ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o’zgarishi boshqarmasi sohasidagi nazorat bo’yicha Mirzo Ulug’bek tuman inspeksiyasiga “ARCA GROUP” MCHJ korxonasi tomonidan ekologik qonunlar va “Chiqindilarning hosil bo’lishi va joylashtirilishining ekologik normativlari loyihasi”da belgilangan me’yorlarga rioya etilishini va tabiatdan foydalanganlik uchun belgilangan to’lovlarning o’z vaqtida amalga oshirilishi ustidan muntazam nazorat olib borish yuklatiladi.

Loyihaning maqbulligi to’g’risidagi Davlat ekologik ekspertizasining xulosasi qonunda belgilangan tartibda davlat idoralari va tashkilotlardan tegishli ruxsatnomalarni olish zaruratini almashtirmaydi yoki bekor qilmaydi.



ЭЛЕКТРОН РАҚАМЛИ ИМЗОЛАР:

1. MUMINOV SHAHBOZ BAHODIROVICH (стир: 32607906130010
сана: 01.03.2024 17:27:55)
2. ABDUSALOMOV XONDAMIR VOXID-O’G’LI (стир:
30103966520054 сана: 01.03.2024 17:30:56)

<https://hujjat.uz/document?pin=pL28jQ77&id=8c66ab94-a663-4cc9-9b53-41563d8f52b9>